


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


Asosiy tarkib



Dastlabki ma'lumotlar

2020-yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **3 811,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **7,8 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **684,3** mlrd. so'mni (**18,4 %** ga kamaydi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **3 127,6** mlrd. so'mni (**5,1 %** ga kamaydi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **450,3** mlrd. so'mni (**30,6 %** ga kamaydi) tashkil etdi.

Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Uyushmagan savdo, mlrd. so'm






UMUMIY MA'LUMOT

2020-yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **3 811,9** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **92,2** % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida deyarli (Xiva shahar, Gurlan, Yangiariq va Yangibozor tumanlaridan tashqari) barcha shahar va tumanlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **82,0** % va yirik korxonalar hissasiga **18,0** % to'g'ri keldi.





ENG YUQORI ULUSH

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Urganch shahri **36,3** % ulush bilan **1 385,0** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

ENG QUIYI ULUSH

Chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Xiva tumani **2,0** % ulush bilan **76,1** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

**YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, **3 127,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **5,1** % ga kamaygan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **82,0** % ni tashkil etdi.


Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Tuproqqal'a (100,0 %), Yangibozor (98,8 %), Gurlan (98,2 %), Yangiariq (97,9 %) va Xiva (97,5 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.





2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan deyarli barcha hududlarda chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur'atlari kuzatilib, yuqori o'sish sur'atlari Gurlan (116,3 %), Xiva shahari (109,6 %), Yangibozor (105,3 %) va Yangiariq (103,5 %) tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





	Jami, mln. so'm	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so'm	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	3 811 927,2	92,2	684 287,4	81,6	3 127 639,8	94,9
shaharlar:						
Urganch	1 385 058,4	89,1	567 747,4	82,6	817 311,0	94,3
Xiva	143 727,5	109,6	11 268,6	186,2	132 458,9	105,8
tumanlar:						
Bog'ot	197 106,1	78,9	10 837,3	76,5	186 268,8	79,0
Gurlan	309 134,4	116,3	5 692,2	115,2	303 442,2	116,3
Qo'shko'pir	193 128,3	95,6	6 462,6	3,2 m.	186 665,7	93,3
Urganch	324 364,3	88,4	23 752,6	59,7	300 611,7	91,9
Hazorasp	353 573,0	95,5	10 147,5	94,5	343 425,5	95,5
Tuproqqal'a	84 248,9	91,9	42,1	-	84 206,8	91,9
Xonqa	223 755,3	84,5	29 590,4	60,9	194 164,9	89,9
Xiva	76 091,9	96,5	1 916,8	20,4	74 175,1	106,8
Shovot	243 706,7	84,0	11 827,9	114,9	231 878,8	82,8
Yangiariq	181 371,9	103,5	3 823,3	79,5	177 548,6	104,2
Yangibozor	96 660,5	105,3	1 178,7	3,7 m.	95 481,8	104,4

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI



Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **18,4 %** ga kamaydi va **684,3** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **18,0 %** ulushiga to'g'ri keladi.




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **3 127,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **5,1 %** ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **82,0 %** ni tashkil etdi.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tuproqqal'a (100,0 %), Yangibozor (98,8 %), Gurlan (98,2 %), Yangiariq (97,9 %) va Xiva (97,5 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 18,0 % ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahrida (41,0 %), Xonqa tumani (13,2 %), Xiva shahri (7,8 %) va Urganch tumani (7,3 %) da kuzatildi.



**XORAZM VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA
NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**


2020-yil yanvar-iyun oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **2 036,8** ming so'm (2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **9,3** % ga kamaydi) ni tashkil qildi. Yuqori o'sish sur'ati Xiva shahri (107,9 %), Shovot (3,0 marta) va Hazorasp (120,6 %) tumanlarida qayd etildi. Xiva (28,3 %), Yangibozor (54,4 %), Yangiariq (61,5 %) tumanlarida eng quyi ko'rsatkichlar kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichlar hududlar kesimida solishtirilganda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasida yuqori hajmlar Urganch shahri (9 605,1 ming so'm), Gurlan (2 087,3 ming so'm) va Hazorasp (1 828,2 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



	Hajm, ming so'm	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	2 036,8	90,7
<i>shaharlar:</i>		
Urganch	9 605,1	87,8
Xiva	1 557,2	107,9
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot	1 199,7	77,5
Gurlan	2 087,3	114,6
Qo'shko'pir	1 123,5	94,0
Urganch	1 634,9	86,8
Hazorasp	1 828,2	120,6
Tuproqqal'a	1 529,0	-
Xonqa	1 203,0	83,3
Xiva	524,0	28,3
Shovot	1 436,9	3,0 m.
Yangiariq	1 566,3	61,5
Yangibozor	1 108,5	54,4

Asosiy tarkib, foizda




Dehqon bozorlari




Chorva (parranda) bozorlari


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



2020-yilning yanvar-iyun oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **450,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **30,6 %** ga kamaydi. Shu jumladan, 1-bozor va 1-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **257,9** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 82,4 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **192,4** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 57,3 %) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-iyun oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **257,9** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **192,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	450,3	69,4	257,9	82,4	192,4	57,3
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	91,6	68,1	47,3	109,7	44,3	48,8
Xiva	9,7	97,2	9,7	95,6	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Bog 'ot	64,1	56,3	28,9	67,5	35,2	49,8
Gurlan	38,8	65,8	24,0	83,6	14,8	49,0
Qo'shko'pir	41,8	77,5	29,0	82,3	12,8	67,5
Urganch	-	-	-	-	-	-
Hazorasp	37,0	85,7	25,4	67,9	11,6	95,4
Tuproqqal'a	7,9	96,1	4,3	92,5	3,6	98,8
Xonqa	36,0	73,0	29,1	75,4	6,9	61,5
Xiva	-	-	-	-	-	-
Shovot	81,8	64,6	28,7	77,6	53,1	59,7
Yangiariq	23,8	84,4	16,9	91,4	6,9	69,9
Yangibozor	17,8	81,8	14,6	88,7	3,2	57,9

**UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:
DEHQON BOZORLARI**



1,5
mlrd. so'm

Tuzlamalar



137,4
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



8,3
mlrd. so'm

**Qurtilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**

(yong'oq, bodom, pista va boshqalarni qo'shgan holda)

24,5
mlrd. so'm



**Non va non
mahsulotlari**



5,0
mlrd. so'm

**Sut va sut
mahsulotlari**

1,8
mlrd. so'm



Tuxum

35,4
mlrd. so'm



**Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)**

11,6
mlrd. so'm



**Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar**

9,0
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)**

21,6
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

1,8
mlrd. so'm



Ziravorlar

2020-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning (Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) 11 ta hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **257,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**137,4** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.


2020-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning **10** ta (Xiva shahri, Urganch va Xiva tumanlaridan tashqari) hududlarda joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **192,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **180,6** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **10,8** mlrd. so'mni, otlar **0,1** mlrd. so'mni, parrandalar **0,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:





2020-yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,1 %** ni tashkil etib, **41,7 mlrd. so‘mga** yetdi va 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **25,4 %** ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining **91,8 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda



	Jami, mlrd. so‘m	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so‘m	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	41,7	74,6	3,4	160,1	38,3	71,3
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	15,8	59,9	1,0	59,9	14,8	60,1
Xiva	2,6	70,2	-	-	2,6	70,2
<i>tumanlar:</i>						
Bog‘ot	1,5	82,0	-	-	1,5	82,0
Gurlan	1,3	80,1	-	-	1,3	80,1
Qo‘shko‘pir	0,8	80,2	-	-	0,8	80,2
Urganch	8,2	82,3	0,3	93,6	7,9	81,9
Hazorasp	2,5	75,6	-	-	2,5	75,6
Tuproqqal‘a	0,4	44,3	-	-	0,4	44,2
Xonqa	1,6	86,0	-	-	1,6	86,0
Xiva	1,6	102,3	-	-	1,6	102,3
Shovot	3,7	185,3	2,1	-	1,6	81,3
Yangiariq	0,7	102,8	-	-	0,7	102,8
Yangibozor	1,0	95,1	-	-	1,0	95,1

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

2020-yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1 088,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **11,6 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **365,3** mlrd. so'mni (**21,7 %** ga kamayish), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **722,7** mlrd. so'mni (**5,5 %** ga kamayish) tashkil etdi.

O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Yirik korxonalar

Mikrofirma va kichik korxonalar

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Ulgurji savdo

1 088,0 mlrd. so'm, 100 %


Yirik korxonalar

365,3 mlrd. so'm, 33,6 %

Mikrofirma va kichik korxonalar

722,7 mlrd. so'm, 66,4 %

Eng yuqori ulushga ega hududlar






Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur‘atlariga ega yirik korxonalar Yangibozor (5,9 m.), Xonqa (5,4 m.) va Gurlan tumanlarida (3,6 m.) kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida yuqori o‘zgarish sur‘atlari Tuproqqal’a (6,9 m.), Xiva (150,6 %) va Xonqa (110,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o‘shish sur‘atlari, foizda




	Jami, mln. so‘m	2019-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so‘m	2019-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mln. so‘m	2019-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	1 088 025,9	88,4	365 275,0	78,3	722 750,9	94,5
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	521 173,5	99,1	163 079,6	128,8	358 093,9	89,6
Xiva	40 373,5	105,4	324,3	84,4	40 049,2	105,7
<i>tumanlar:</i>						
Bog ‘ot	19 642,6	107,2	6,5	191,9	19 636,1	107,2
Gurlan	17 893,1	102,1	57,1	3,6 m.	17 836,0	101,9
Qo‘shko‘pir	9 215,9	80,4	17,7	126,7	9 198,2	80,3
Urganch	245 622,2	53,4	134 831,8	40,0	110 790,4	90,1
Hazorasp	9 504,4	88,0	18,3	164,0	9 486,1	87,9
Tuproqqal’a	66 095,3	6,9 m.	58 371,1	-	7 724,2	80,5
Xonqa	52 129,8	110,7	8 439,9	5,4 m.	43 689,9	95,9
Xiva	46 998,3	150,6	72,9	13,0	46 925,4	153,2
Shovot	21 546,6	103,5	16,8	17,2	21 529,8	103,9
Yangiariq	11 981,5	109,1	20,3	2,6 m.	11 961,2	109,0
Yangibozor	25 849,2	89,9	18,7	5,9 m.	25 830,5	89,9

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, **722,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **5,5** % ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **66,4** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Bog'ot (100,0 %), Shovot (99,9 %), Yangibozor (99,9 %), Yangiariq (99,8 %) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Tuproqqal'a (11,7 %), Urganch (45,1 %) tumanlariga to'g'ri keldi.



Tashqi iqtisodiy
faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.: (62) 227-78-85